

№ 345-son
2022.12.09


ToshPTI talabalar bilimini baholash markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli, 2017 yil 5 maydagi "O'zbekiston Respublikasida tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2956-sonli qarorlarini bajarilishini ta'minlash maqsadida Toshkent pediatriya tibbiyot institutining 2018 yil 30 martdagi 178-sonli buyrug'ida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida:

BUYURAMAN:

1. Talabalar tomonidan o'zlashtirilmagan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni qayta topshirishi va yakuniy nazorat uchun 2022-2023 o'quv yilidan "Talabalar bilimini baholash" markazi tashkil etilsin.
2. "Talabalar bilimini baholash" markazi ishini tashkil qilish, faoliyatini yuritish va nazorat qilish O'quv-uslubiy bo'limning Ta'limning kredit tizimini boshqarish sektori boshlig'i Abdullaeva Umida Umidovna zimmasiga yuklatilsin.
3. Barcha fakultet dekanlariga (Rahmatullaev A.A., Ashurova D.T., Valiyev A.R., Nurkhodjaev S.N., Muxamedjanova Sh.T.):
1-ilovada ko'rsatilgan kafedralarda o'qitiladigan fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulot va ma'ruzalar uchun yangilangan testlar bazasi talab qilingan shaklda har bir mashg'ulot uchun 40 tadan kam bo'lmagan test savollarini (o'zbek lotin va rus tilida) shakllantirib, talabalar bilimini baholash markaziga o'z vaqtida taqdim qilinishi nazoratga olinsin;
4. Innovatsiya markazi direktori Ashirbayev Sh.P.ga:
"Talabalar bilimini baholash" markazini komp'yuterlarini dasturiy ta'minoti ta'minlansin.
5. 1-ilovada keltirilgan kafedralar mudirlariga:
Mashg'ulotlar va ma'ruzalarni qayta o'zlashtirish bo'yicha testlar bazasini tayyorlash bo'yicha kafedrada ma'sul xodim tayinlansin;
Testlar bazasini yaratishda testlar murakkabligi talablariga quyidagicha rioya qilinsin: 50%-bir javobli, 25% ko'p javobli, 15% ketma ketlik, 10% mutanosiblik;
Testlarni o'zbek va rus tillarida shakllantirib ikki tilda ham mazmunan bir xilligi nazorat qilinsin;
6. Talabalar bilimini baholash markazi uchun ma'sul Abdullaeva U.U.ga:
Testlar bazasi shakllantirilsin va bo'lim ishini 15.09.2022 yildan yo'lga qo'yish ta'minlansin.
7. Ushbu buyruq ijrosi nazoratini o'z zimmasida qoldiraman.

Rektor



B.T.Daminov